



## THE INFLUENCE OF MORAL AND LEGAL NORMS ON GENDER EQUALITY

**Munajat Bositovna Gafurova**

*Independent Researcher*

*Namangan State Pedagogical Institute*

*E-mail: [munajatgafurova@gmail.uz](mailto:munajatgafurova@gmail.uz)*

*Namangan, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Gender equality, moral norms, legal norms, gender stereotypes, discrimination, globalization.

**Received:** 03.08.25

**Accepted:** 04.08.25

**Published:** 05.08.25

**Abstract:** This article analyzes the influence of moral and legal norms on gender equality. Philosophical, social, and political aspects of gender equality are examined. The impact of modern moral and legal norms on society is assessed. The article highlights various approaches to achieving gender equality and reveals the relevance of this issue in the context of globalization and the information society.

## AXLOQIY VA HUQUQIY NORMALARNING GENDER TENGLIGIGA TA'SIRI

**Munajat Bositovna Gafurova**

*Mustaqil tadqiqotchisi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*E-mail: [munajatgafurova@gmail.uz](mailto:munajatgafurova@gmail.uz)*

*Namangan, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Min imperiyasi, imperator Yungli, Markaziy Osiyo, xitoy manbalari, "Min Shilu", savdo va diplomatik munosabatlar, Samarqand, nefrit toshi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axloqiy va huquqiy normalarning gender tengligiga ta'siri tahlil qilinadi. Gender tengligining falsafiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy axloqiy va huquqiy normalarning jamiyat hayotiga ta'siri baholanadi. Maqola gender tengligiga erishishning turli xil yondashuvlarini yoritib, globallashtirish va axborot jamiyati sharoitida ushbu masalaning qanday dolzarb ekanligini ochib beradi.

## ВЛИЯНИЕ ПРАВСТВЕННЫХ И ПРАВОВЫХ НОРМ НА ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО

**Муножат Боситовна Гафурова**

Независимый исследователь

Наманганский государственный педагогический институт

E-mail: [munojatgafurova@gmail.uz](mailto:munojatgafurova@gmail.uz)

Наманган, Узбекистан

## О СТАТЬЕ

|                        |                                                                                                             |                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ключевые слова:</b> | Гендерное равенство, нравственные нормы, правовые нормы, гендерные стереотипы, дискриминация, глобализация. | <b>Аннотация:</b> | В данной статье анализируется влияние нравственных и правовых норм на гендерное равенство. Рассматриваются философские, социальные и политические аспекты гендерного равенства. Оценивается влияние современных нравственных и правовых норм на жизнь общества. Статья освещает различные подходы к достижению гендерного равенства и раскрывает актуальность этого вопроса в условиях глобализации и информационного общества. |
|------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

**Kirish.** Bugungi kunda gender tengligi global kun tartibidagi eng muhim masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu nafaqat adolat va inson huquqlari masalasi, balki barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zaruriy shartidir. Gender tengsizligining chuqur ildizlari jamiyatdagi axloqiy va huquqiy normalarda o'z aksini topadi.

Axloqiy normalar, jamiyatning qadriyatlari va e'tiqodlari tizimi sifatida, gender rollarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular ayollarning jamiyatdagi o'rnini belgilab berishi, ularning ta'lim olishi, kasb tanlashi va siyosiy faoliyatda ishtirok etishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Huquqiy normalar esa davlat tomonidan o'rnatilgan qoidalar bo'lib, gender tengligini ta'minlash yoki, aksincha, tengsizlikni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Shu bois, axloqiy va huquqiy normalarning gender tengligiga ta'sirini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola mazkur mavzuni chuqur o'rganishga, mavjud muammolarni aniqlashga va ularni hal qilish yo'llarini taklif etishga qaratilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Gender tengligi nazariyalari gender tengsizligining sabablari va oqibatlarini tushunishga yordam beradi. Feminizm, ijtimoiy konstruktivizm va interseksionallik kabi nazariyalar gender rollarining ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllanganligini ta'kidlaydi va gender tengsizligiga qarshi kurashish uchun turli xil yondashuvlarni taklif etadi. Misol uchun, feministik nazariya ayollarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, ijtimoiy konstruktivizm gender stereotiplarini buzishga va gender rollarini qayta ko'rib chiqishga chaqiradi. Interseksionallik esa gender tengsizligini irq, sinf va boshqa ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda tahlil qilishni taklif etadi .

Gender stereotiplari va diskriminatsiya gender tengsizligining asosiy omillaridan biridir. Ko'plab tadqiqotlar gender stereotiplari ayollarning ta'lim olishi, kasb tanlashi va siyosiy faoliyatda ishtirok etishiga to'sqinlik qilishini ko'rsatadi. Diskriminatsiya esa ayollarning mehnat bozorida, ta'lim sohasida va boshqa sohalarida teng imkoniyatlarga ega bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlashga qaratilgan bir qator qonunlar va siyosatlar qabul qilingan. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi qonun gender tengligini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlash bo'yicha Milliy harakatlar rejasi gender tengligiga erishish uchun aniq maqsadlar va vazifalarni belgilaydi. Ushbu qonunlar va siyosatlar gender tengligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, ammo ularning samaradorligi jamiyatning axloqiy tayyorgarligi va huquqiy ongiga bog'liq.

**Muhokama.** Adabiyotlar tahlili va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axloqiy va huquqiy normalar gender tengligiga murakkab va ziddiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Gender tengligiga oid axloqiy normalar adolat, tenglik va inson huquqlari kabi falsafiy tushunchalarga asoslanadi. Kantning kategorik imperativi nuqtai nazaridan, har bir insonni maqsad sifatida ko'rish va ulardan faqat vosita sifatida foydalanmaslik kerak. Gender tengsizligi esa ayollardan jamiyat manfaatlari uchun vosita sifatida foydalanishga urinishdir, bu esa axloqiy jihatdan noto'g'ri.

Utilitarizm falsafasi nuqtai nazaridan, jamiyatning umumiy farovonligini oshirish uchun gender tengligiga erishish zarur. Chunki ayollarning to'liq ishtiroki jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Huquqiy normalar esa axloqiy normalarni qonuniy shaklga kiritish orqali gender tengligini ta'minlashga qaratilgan. Biroq, huquqiy normalarning samaradorligi ularning axloqiy asoslariga mos kelishi va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq. Agar qonunlar jamiyatning axloqiy qadriyatlariga zid bo'lsa, ular amalda ishlamaydi va gender tengsizligini bartaraf eta olmaydi.

O'zbekiston jamiyatida an'anaviy gender rollari va stereotiplari ahamiyatli mavzulardandir. Ayollar ko'proq oila va uy ishlariga mas'ul deb hisoblansa, erkaklar oilani ta'minlovchi va jamiyatda faol rol o'ynovchi shaxs sifatida ko'riladi. Bu holat ayollarning ta'lim olishi, kasb tanlashi va siyosiy faoliyatda ishtirok etishiga ta'sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab oilalarda o'g'il bolalarga ko'proq e'tibor beriladi, ularning ta'lim olishi va kasbiy o'sishi uchun ko'proq imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa gender tengsizligini kuchaytiradi.

O'zbekiston qonunchiligida gender tengligini ta'minlashga qaratilgan bir qator qonunlar qabul qilingan. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun gender diskriminatsiyasini taqiqlaydi va ayollarning huquqlarini himoya

qiladi . Biroq, bu qonunlarning amalda to'liq qo'llanilishi jamiyatning axloqiy tayyorgarligi va huquqiy ongiga bog'liq. Ko'plab hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar gender diskriminatsiyasi holatlariga yetarli e'tibor bermaydi, bu esa ayollarning huquqlari buzilishiga olib keladi . Bu holat qonunlarning faqatgina qog'ozda qolib ketishi, real hayotda esa o'zgarishlar sekin amalga oshirishidan dalolat beradi

Globallashuv gender tengligi masalasiga yangi imkoniyatlar va tahdidlarni olib kelmoqda. Bir tomondan, xalqaro tashkilotlar va nodavlat tashkilotlar gender tengligini qo'llab-quvvatlovchi axloqiy va huquqiy normalarni tarqatishga harakat qilmoqda . Boshqa tomondan, globallashuv mahalliy madaniyatlar va an'analarga zid bo'lgan yangi axloqiy va huquqiy normalarni olib kelishi mumkin, bu esa gender tengsizligini kuchaytirishi mumkin.

**Natijalar.** Ushbu tadqiqot O'zbekiston jamiyatida axloqiy va huquqiy normalarning gender tengligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan edi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gender tengligiga erishish O'zbekiston uchun murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, bir qator omillarga bog'liq.

Birinchidan, O'zbekiston jamiyatida an'anaviy gender rollari va stereotiplar hali ham kuchli ta'sirga ega. Ko'pgina oilalarda ayollar ko'proq oila va uy ishlariga mas'ul deb hisoblanadi, erkaklar esa oilani ta'minlovchi va jamiyatda faol rol o'ynovchi shaxs sifatida ko'riladi. Bu holat ayollarning ta'lim olishi, kasb tanlashi va siyosiy faoliyatda ishtirok etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab oilalarda o'g'il bolalarga ko'proq e'tibor beriladi, ularning ta'lim olishi va kasbiy o'sishi uchun ko'proq imkoniyatlar yaratiladi . Bu esa gender tengsizligini yanada kuchaytiradi.

Ikkinchidan, O'zbekiston qonunchiligida gender tengligini ta'minlashga qaratilgan bir qator qonunlar mavjud. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun gender diskriminatsiyasini taqiqlaydi va ayollarning huquqlarini himoya qiladi. Biroq, bu qonunlarning amalda to'liq qo'llanilishi jamiyatning axloqiy tayyorgarligi va huquqiy ongiga bog'liq. Afsuski, ko'plab hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar gender diskriminatsiyasi holatlariga yetarli e'tibor bermaydi, bu esa ayollarning huquqlari buzilishiga olib keladi .Bizningcha bu qonunlarning samaradorligini oshirish uchun nafaqat huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, balki jamiyatning ongi va munosabatini ham o'zgartirish zarur

Uchinchidan, globallashuv gender tengligi masalasiga yangi imkoniyatlar va tahdidlarni olib kelmoqda. Bir tomondan, xalqaro tashkilotlar va nodavlat tashkilotlar gender tengligini qo'llab-quvvatlovchi axloqiy va huquqiy normalarni tarqatishga harakat qilmoqda. Boshqa tomondan, globallashuv mahalliy madaniyatlar va an'analarga zid bo'lgan yangi axloqiy va huquqiy normalarni olib kelishi mumkin, bu esa gender tengsizligini kuchaytirishi mumkin.

Falsafiy nuqtai nazardan, gender tengligi adolat, tenglik va inson huquqlari kabi asosiy axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Gender tengsizligi Kant falsafasida insonni maqsad emas, vosita sifatida ko'rishga urinishdir. Utilitarizm nuqtai nazaridan esa, gender tengligi jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa qilib aytganda,** O'zbekistonda gender tengligiga erishish uchun kompleks yondashuv zarur. Ta'lim tizimida gender tengligini targ'ib qilish, huquqiy ongni oshirish, ommaviy axborot vositalarida gender stereotiplarini buzish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jamiyatda gender tengligi masalalariga nisbatan tolerantlikni oshirish, ayollarning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Faqat shu yo'l bilan biz O'zbekiston jamiyatida ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlay olamiz, bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hooks, B. (2000). Feminist Theory: From Margin to Center. Pluto Press.
2. Nussbaum, M. (1999). Sex and Social Justice. Oxford University Press.
3. Sen, A. (1995). Gender Inequality and Theories of Justice. The Tanner Lectures on Human Values, 16, 259-324.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2019-yil 2-sentabr, O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida".
5. O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlash bo'yicha Milliy harakatlar rejasi (2021-2025).
6. Karimova, G. (2020). O'zbekiston jamiyatida gender stereotiplari: sotsiologik tahlil. "Ijtimoiy fikr" jurnali, 2(1), 45-56.
7. Muxtorova, F. (2018). O'zbekiston qonunchiligida gender tengligi: muammolar va yechimlar. "Huquq va burch" jurnali, 3(2), 78-89.
8. UN Women. (2023). Progress on the Sustainable Development Goals: The gender snapshot 2023. United Nations.